



## YOSHLARNING HAYOTIDA IJTIMOIY TARMPOQLARNING IJOBIY VA SALBIY TOMONLARI.

*Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti sirtqi Pedagogika va psixologiya yo`nalishi talabalari Nasrullayeva Gulhayo Abdullayevna, Safarova Barchinoy Mustafo qizi.*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada yosh o'sib kelayotgan avlodning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish borasidagi fikr mulohazalar haqida so'z boradi. Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar hayotidagi ijobiy va salbiy holatlari va ijtimoiy tarmoqlardan qay tarzda foydalanish kerakligi haqida bilim, ko'nikma va malaklalar shakllanishiga doir ma'lumotlar beriladi

**Kalit so'zlar:** yoshlar, ijtimoiy tarmoqlar, ota-onal, so'rovnama, axborot.

Bugungi kunda inson hayotida ijtimoiy tarmoqlarning o'rni beqiyos, bunga sabab insonlar o'zi uchun kerakli ma'lumotlar, voqeal-hodisalar shuningdek ro'y berayotgan yangiliklarhaqida ijtimoiy tarmoqlar orqali ma'lumot oladi. Bu ular uchun qulay va foydalidir. Lekin shu bilan birgalikda ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda salbiy tomonlari haqida ham ma'lumotlar va faktlar mavjuddir. Yoshlar o'qish va faoliyati davomida ijtimoiy tramoqlardan foydalanishadi. Ushbu foydalanish davomida ijtimoiy tarmoqlar ular uchun o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Bu borada Proymak hamkasblari bilan birga 19-32yosh doirasidagilar orasida 1787 nafar amerikaliklar o'rtasida so'rovnama o'tkazishdi. So'rovnama mavzusi eng mashhur 11 ta ijtimoiy tarmoqddan foydalanishga qaratilgan edi. Shundan so'ng ular kompyuterdag'i testlar va bir



necha psixologik so'rovnomalari yordamida respondentlarning ijtimoiy izolyatsiya darajasini aniqlashdi.

Ma'lum bo'lishicha kuniga 2 soatdan ko'p vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazuvchi yoshlar internetga 30 daqiqadan kam sarflovchi tengdoshlariga qaraganda yolg'izlikdan ikki barobar ko'p aziyat chekishar ekan. Shuningdek bir haftada 58 marta ijtimoiy tarmoqlarni ziyorat qiluvchi respondentlar ijtimoiy tarmoqlarga haftaga 9 martagacha kiruvchi so'rovnama ishtirokchilariga nisbatan uch karra ko'p yolg'izlikka moyil bo'lishar ekan.

Tadqiqot mualliflarining ta'kidlashicha ijtimoiy tarmoqlarning zarari haqida uzoq muddatli xulosalar qilishga hali erta. Zero ular dastlab nima paydo bo'lganini ya'ni – yolg'izlik hissimi yoki ijtimoiy tarmoqlarga qiziqishimi bilishmaydi. Shunday ekan, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish qanchalik inson hayotiga ta'sir kuchiga ega ekanligi borasida fikr mulohazalar davom etmoqda.

Bugungi kunda yurtimizda axborot erkinligi borasida ko'p qonun va qarorlar mavjuddir. Birgina "Axborot erkinligi prinsiplari vakafolatlari to'g'risida"gi qonunning 15-moddasida davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta'minlash yo'llaridan biri sifatida zo'ravonlikni, shavqatsizlikni targ'ib qiluvchi g'oyalarni o'z ichiga oluvchi axborot tarqalishiga qarshi harakatlar qilish ekanligi mustahkamlangan.

Yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish borasida yurtimizda davlat rahbarimiz tomonidan ko'plab islohotlar olib borilmoqda. Xususan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati 2022-yil 4-fevralda internet jahon axborot tarmog'ida yoshlar va voyaga yetmaganlar uchun milliy kontentni rivojlantirish, ularning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyati va zararli axborotdan himoya qilish masalallari yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirkar mahkamasiga yuborilgan parlament so'roviga berilgan javobni ko'rib chiqib bu borada muayyan ishlar amalga oshirilishini qayd etadi. Jumladan internet jahon



axborottarmog’I orqali yoshlar hayotiuga xavf solayotgan , ularning ongiga salbiy ta’sir qiluvchi axborot xurujlarining oldini olishga qaratilgan ijobiy ijobiy ishlar olib borilgan.

Yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish davomida ularning psixologiyasi va fiziologiyasida ham bir qancha o’zgarishlar yuz berishi mumkin. Bu esa yoshlar hayotida o’z ta’sirini o’tkazmay qolmaydi.

Ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy tomonlariga yoshlar o’ziga kerakli bo’lgan ma’lumotlar, yangiliklardan xabardor bo’ladilar. Zamonaviy taxnika va texnologiyalaridan foydalanish zamon talablariga mos tarzda harakat qila olish imkoniga ega bo’ladi. Bu uning uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. O’z ustida ishlashiga imkon bo’ladi. Bu orqali yuqori natijalarga erishishi va o’z tengdoshlari orasida ham obro’ e’tiborga ega bo’lishadi.

Ijtimoiy tarmoqlarning salbiy tomonlari – bugungi kunda ahamiyatga molik tomoni yoshlar psixologiyasida o’zifa xos o’zgarishlar yuz beradi. Ular o’zlarida yolg’izlikni his eta boshlaydilar, shuningdek yolg’iz qolishni qatrodagilar bilan muloqot qilishni xoxlamaydigan, oddamovi holatga kelib qoladi. Fiziologik jihatdan esa, umurtqa pog’onasining buzilishi, kam harakat tufayli ortiqcha vaznlarning ortishi, ko’zdagi turli nuqsonlarning paydo bo’lishi, miya faoliyatining buzilishi, turli xatti-harakatlarni noto’g’ri bajarilishiga sabab bo’lishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish jarayonida bir qancha qonu n-qoidalarga asoslangan holda faoliyat olib boorish kerak.

Internet provayderi yoki simsiz tarmoq qurulmalarini ishlab chiqruvchilar tomonidan o’ziga tegishli veb sahifakaridan xavfsiz foydaalanish uchun turli tavsiyalar beriladi. Ushbu tavsiyalarga amal qilish aksariyat hollarda bo’lishi



mumukin bo`lgan xavfsizlik muammosini oldini olishga kata yordam beradi. (“KIBR XAVFSIZLIK ASOSLARI” kitobi 169-bet. Toshkent 2020-yil).

Yuqoridagi fikrlar asosida ta`kidlash mumkinki yoshlar har qanday hokatda yoki vaziyatda bo`lishidan qat`iy nazar har qanday ehtiyojlarni me`yor asosida olib borishi maqsadga muvofiqdir. Bu shoshlarni o`ziga bo`lgan ishonchini oshirishga, faoliyatiga va atrofidagilarga nisbatan ijobiy munosabatda bo`lishiga yordam berad. Har bir inson hoh yosh hoh kata bo`lsin me`yor qoidalariga asoslangan holida faoliyat olib borishi lozim. Bu borada jamiyat negizi sifatida oila va undagi ota-onas, shuningdek yaqinlarning o`rni beqiyosdir.

Har bir insonning, ayniqsa endigina hayotga qadam qo`yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular oldiga qo`yilgan maqsadlarga erishish o`zlariga bog`liq ekanligini, ya`nib u narsa ularning sobitqadam, g`ayratqadam, shijoatiga to`la to`kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bog`liq ekanagini anglab yetishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy shartidir.

Shu nuqtai nazaridan oilaviy an`analar, rasm-rusumlar va urf-odatlar orqali bolalarimiz ongigga milliy g`oyani va istiqlol mafkurasini singdirishni ta`minlovchi psixologik omillar va shart-sharoitlarni o`ta dolzarb va muhimdir.. (“Oila psixologiyasi” 137-bet, V.Karimova Toshkent-2007).

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylandi. Yoshlar ushbu tarmoqlar orqali do`stlar bilan muloqot qilish, yangiliklar xabardor bo`lish, o`quv materiallarini erkin bayon qilish kabi imkoniyatlarga ega bo`lishlari mumkin. shunday ekan ijtimoiy tarmoqlardan to`g`ri va ehtiyojkorona foydalanish yoshlarning shaxsiy rivojlanishiga, bilim olishiga, jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga va komil inson sifatida shakllanishiga yordam beradi. Lekin ijtimoiy tarmoqlardan noto`g`ri foydalanish yoshlar axloqiga salbiy ta`sir qilishi mumkin. Shuning uchun yoshlar ijtimoiy



tarmoqlardan foydalanishda ehtiyot bo`lishlari va ularning salbiy ta`sirlaridan himoyalanishlari kerak.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar.**

- 1.** “Kibrxavfsizlik asoslari” Toshkent 2020 S.K. G`aniyev, A.A. G`aniyev, Z>T>Xudoyqulov
- 2.** “Oila psixologiyasi” Toshkent 2007 Vasila Karimova.